



YOSH BILIMDON

Abduqodir Ahadov

YOSH BILIMDON

Diqqat! Kitobni yoki uning bir qismini nusxalash, ko'paytirish, shuningdek har qanday axborot tizimida nashriyot ruxsatisiz tarqatish taqiqlanadi.
Mualliflik huquqini buzish jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.
Barcha huquqlar himoyalangan.

«PIR» nashriyoti
Toshkent - 2024

Mundarija

1. Sanashga doir	4
2. Yig'indiga doir masalalar	15
3. Ayirmaga doir masalalar	24
4. Ko'paytmaga doir masalalar (I qism)	35
5. Ko'paytmaga doir masalalar (II qism)	45
6. Bo'linmaga doir masalalar (I qism)	54
7. Bo'linmaga doir masalalar (II qism)	62
8. Amallar ketma-ketligi	72
9. Masalalar yechish	82
10. Soatlar bilan ishlash	94
11. Pullar bilan ishlash	108
12. Tenglamalar	117
13. Uzunlik o'lchovlari	124
14. Og'irlik o'lchovlari	133
15. Aralash masalalar	143

Ushbu to'plam Intelligence Development Center(t.me/idcuz) tomonidan tayyorlangan. IDC tashkilotining asosiy faoliyati davlat va nodavlat ta'lim muassasalari uchun o'quv qo'llanmalar, dasturlar va kitoblar tayyorlash hisoblanadi.

Buyurtma berish uchun quyidagilarga murojaat qiling:



(99) 968 44 00



@IDC_books




Taklif va mulohazalaringizni quyidagi QR kod orqali kutib qolamiz.




1. SANASHGA DOIR

2. Quyidagi rasmdan foydalanib qonuniyat aniqlang va so'roq o'rnidagi hayvonni toping.




- A)  B)  C) 





3. Qizlar yo'nalish bo'yicha yursa, qaysi biri musiqa asbobiga boradi?



- A) Hilola B) Anora C) Laylo D) Hech biri bormaydi

4. Quyidagi rasmdan foydalanib qonuniyat aniqlang va so'roq o'rnidagi shaklni toping.



- A)  B)  C)  D) 

- 31 Rasmga qarang va bo'sh joylardagi sonlarni toping.

$$\begin{array}{r} 32 \\ + 20 \\ \hline 52 \end{array} \quad \begin{array}{r} 52 \\ + 15 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 17 \\ + 25 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} \\ + 33 \\ \hline \end{array}$$

- 32 "MURUVVAT" ko'chasining chap tomonida 164 ta, o'ng tomonida esa 97 ta daraxtlar bor. Bu ko'chada jami nechta daraxt bor?
- 33 Hoshim va Karim bittadan son aytdi. Hoshim 163 sonini aytgan edi. Agar Karim aytgan son Hoshimnikidan 86 ga katta bo'lsa, Karim qanday sonni aytgan?
- 34 Akamda 145 ming pul bor. Mening esa 89 ming pulim bor. Akam bilan birgalikda pul yig'moqchimiz. Hozir bizning birgalikda necha ming pulimiz bor?
- 35 Ustozimiz doskaga misol yozdi. Furqat bilan Javohir eng birinchi bo'lib ishlab bordi. Lekin Furqatning javobi 803, Javohirning javobi esa 813 ekan. Ulardan qaysi biri misolni to'g'ri ishlagan?

$$\begin{array}{r} 729 \\ + 84 \\ \hline \end{array}$$

36-39 Ustun shaklida qo'shing.

36 $210+100+23=$

37 $123+200+150=$

38 $143+105+87=$

39 $247+112+231=$


- 40 Nigoraning kecha tug'ilgan kuni edi. Unga dugonalari Zilola 15 ta gul, Komila 8 ta gul, Dildora esa 12 ta gul sovg'a qilgan edi. Nigoraning jami nechta guli bor?
- 41 Bizning maktabda 2^A – sinfda 25 ta, 2^B – sinfda 21 ta, 2^C – sinfda esa 22 ta o'quvchi o'qiydi. Maktabimizda jami 2-sinf o'quvchilari nechta?

Mantiqdan testlar


- 1 Faxriddin bir xil raqamli qo'lqoplarini juftlab chiqmoqda. Unda nechta juft qo'lqop hosil bo'ladi?



- A) 5 ta B) 4 ta C) 3 ta D) 2 ta
- 2 Madina pitsa teng qismlarga bo'ldi va bir nechta bo'lak yedi. Madina pitsadan nechta bo'lak yegan?



- A) 4 B) 3 C) 2 D) 1
- 3 Jasur o'zining sevimli xo'rozining rasmini to'rt marta chizdi, lekin ichida bitta rasmda xato qilgan. Jasur qaysi rasmda xato qilgan?



3. AYIRMAGA DOIR MASALALAR

Uy ishi:

1-10 Ustun shaklida ayiring.

1 $29 - 15 =$

2 $35 - 24 =$

3 $38 - 31 =$

4 $56 - 43 =$

5 $59 - 37 =$

6 $42 - 17 =$

7 $46 - 27 =$

8 $58 - 39 =$

9 $51 - 25 =$

10 $72 - 44 =$

11 Ushbu ifodalardan nechtasining qiymati 29 dan katta?

$42 - 18$

$45 - 26$

$13 + 18$

$60 - 23$



12 Xurshidning 39 ta qo'shnisi bor edi. Lekin 15 ta qo'shnisi negadir boshqa shaharga ko'chib ketishdi. Hozir Xurshidning nechta qo'shnisi bor?




13 Daraxtda 46 ta qush bor edi. Biroz shovqin sababli 19 ta qushlar uchib ketdi. Daraxtda nechta qushlar qoldi?

14 Savatimizda 40 dona behi bor edi. Qo'shnimizga 21 dona behi berib keldim, endi savatimizda nechta behi qoldi?

15 Rasmga qarang va bo'sh joylardagi sonlarni toping.



3. AYIRMAGA DOIR MASALALAR



4. KO'PAYTMAGA DOIR MASALALAR (I QISM)

25-34 Ustun shaklida ko'paytiring

25 $17 \cdot 2 =$

26 $14 \cdot 4 =$

27 $13 \cdot 6 =$

28 $16 \cdot 4 =$

29 $19 \cdot 3 =$

30 $24 \cdot 6 =$

31 $28 \cdot 3 =$

32 $32 \cdot 4 =$

33 $35 \cdot 3 =$

34 $47 \cdot 4 =$

35 Futbol o'ynash uchun beshta do'stlar 13 \$ dan pul yig'ib do'kondan koptok sotib oldi. Koptokning narxi necha \$ ekanini toping.

36 Mening 23 ta qo'yim bor edi. Men do'stlarim bilan dalaga qo'y boqishga bordik. Hammamiz qo'ylarimizni bitta joyga to'plagan edik, menikidan 4 marta ko'p qo'ylar podasi hosil bo'ldi. Podada nechta qo'y bo'ldi?



37 Sotuvchi 117 ming so'mga olgan kurtkasini mijozga 2 marta qimmat narxga sotiyapti. Sotuvchi kurtkani necha ming so'mga sotiyapti?


38 Laziza Jahongirga 37 sonini aytdi. Jahongir bu sonni 3 ga ko'paytirib chiqqan javobni Lazizaga qaytarib aytdi. Jahongir qanday sonni aytgan?

39 Bitta ko'p qavatli uyda 24 ta xonadon bor. Shunday ko'p qavatli uylardan 4 tasida nechta xonadon bo'ladi?



6. BO‘LINMAGA DOIR MASALALAR (I QISM)

- 27 Doston sevimli 7 ta o‘yinchog‘ini o‘rtog‘iga 56 ta kumush tangaga sotdi. Shunda Doston har bir o‘yinchog‘ini nechta kumush tangadan sotgan?
- 28 Akvariumda baliqlar ko‘payib ketdi. Akvariumdagi 45 ta baliqni 5 ta akvariumga teng miqdorda bo‘lib qo‘ydi. Har bir akvariumga nechtadan baliq tushdi?



- 29 Qassob o‘ziga qulaylik uchun 48 kg go‘shini 6 kg dan qilib paketchalarga solib chiqdi. Qassob go‘shni nechta paketchalarga solgan?



- 30 Bog‘bon amaki 54 ta olmani 9 ta bolaga teng bo‘lib berdi. Har bir bola nechtadan olma olishgan?



- 31 “Damas” rusumli mashinaga 8 kishi sig‘adi. Shunday Damaslarga 72 ta odam sig‘ishi uchun nechta damas kerak?

8. AMALLAR KETMA-KETLIGI

28 $84 : (19 - 12) =$

29 $156 : (32 - 19) =$

30 $99 - (8 + 3) \cdot 8 =$

31 $47 + 78 : (10 - 4) =$

- 32 Asilbek 7 sonini o'yladi. O'ylagan soniga 5 ni qo'shdi va chiqqan natijani esa 9 ga ko'paytirdi. Oxirgi chiqqan natija qanday songa teng bo'ldi?



- 33 Abdurashid bobo bizga 194 tanga berdi. Biz bu tangalarning 14 tasiga ichimlik oldik. Qolgan tangalarni esa 12 ta bola bo'lishib oldik. Har birmizga qancha tangadan to'g'ri kelgan?

- 34 Tushirib qoldirilgan qavslarni qo'ying va to'g'ri tenglikni hosil qiling.

$$1 + 3 \cdot 2 = 8$$

$$3 \cdot 7 - 4 = 9$$

- 35 Berilgan sonni shaklning burchaklari soniga ko'paytiring va 1 ni qo'shing. Namunaga asoslanib keyingisini yeching.

$$\begin{array}{c} \triangle \\ 33 \end{array} \rightarrow 33 \cdot 3 + 1 = 100$$

$$\begin{array}{c} \square \\ 31 \end{array} \rightarrow ?$$

16-21 Berilgan vaqtlarga qarab soat millarini chizing.

16 13 : 00



17 15 : 30



18 14 : 20



19 19 : 35



20 20 : 45



21 21 : 55



22-34 Bo'sh joylarni to'ldiring

22 3 soat = daqiqa

23 7 soat = daqiqa

26 1 soat 15 daqiqa = daqiqa

27 2 soat 22 daqiqa = daqiqa

28 4 soat 33 daqiqa = daqiqa

29 5 soat 21 daqiqa = daqiqa

30 73 daqiqa = soat daqiqa

31 100 daqiqa = soat daqiqa

32 125 daqiqa = soat daqiqa

24 11 soat = daqiqa

25 1 kun = daqiqa

11. PULLAR BILAN ISHLASH

- 23 Men do'stinga 3 ta 50 so'mlik va 2 ta 100 so'mlik tanga berganimdan so'ng, o'zimda 700 so'm pul qoldi. Dastlab menda necha so'm pul bo'lgan?
- 24 Otabekda do'konga kirayotganida uchta 200 so'mlik, ikkita 500 so'mlik va bitta 10 000 so'mlik puli bor edi. Do'kondan chiqayotganida esa beshta 200 so'mlik va uchta 500 so'mlik puli bor edi.
 (1) Otabek do'konda necha so'mlik harid qilgan?
 (2) Otabek qaysi pulini bergan va qanday pullar qaytim olgan?
- 25 Abdurashidda 1000 so'mlik pul bor. U pulini do'kondan 200 so'mlik tangalarga maydalamoqchi. Do'kondan nechta tanga oladi?
- 26 Murodjonida 6000 so'm pul bor edi. Lekin cho'ntagiga qarasa ushbu pullar bor. Murodjon bildiki, uning ikki dona puli tushib qolibdi. Tushib qolgan pullar necha so'mlik pullar edi?



- 27 Sobir 500 so'mlik pulini 200 so'mlik va 100 so'mlik tangalar orqali qanday maydalashi mumkin? (Barcha holatlarni ko'rib chiqing)


Mantiqdan testlar

- 1 Qonuniyat aniqlang va so'roq o'rnida turgan sonni toping.

75	→	34	41
69	→	53	16
48	→	?	33

- A) 16 B) 15 C) 14 D) 13

- 2 Quyidagi qaysi shaklda havorang va kulrang qismlar teng emas?



12. TENGLAMALAR

- 3 Maktab derazalarida jami 20 ta gul bor edi. Bir nechtasi nobud bo'lganidan so'ng, gullar 10 ta qoldi. Nechta gullar nobud bo'lishgan?

$$20 - \square = 10$$

- 4 Javohir o'zining konfetlaridan 12 tasini ukasiga berganidan so'ng, o'zida 13 ta konfet qoldi. Dastlab Javohirda nechta konfet bo'lgan?

$$\square - 12 = 13$$

5-8 Noma'lum x ni toping

5 $x + 13 = 27$

6 $21 + x = 31$

7 $x - 17 = 26$

8 $30 - x = 16$

9-16 Tenglamalarni yeching

9 $x + 22 = 43$

10 $x + 28 = 55$

11 $19 + x = 31$

12 $35 + x = 66$

13 $x - 14 = 32$

14 $x - 30 = 54$

15 $56 - x = 23$

16 $77 - x = 34$

- 17 Asror 11 ta kitob o'qigan edi. U yana 14 ta kitob o'qibdi. Men 20 ta kitob o'qigan edim. Endi men yana nechta kitob o'qisam Asrorga yetib olaman?


$$11 + 14 = 20 + \square$$

13 Uzunlik o'lchovlari

Sinf ishi:

- 1 $1 \text{ sm} = \text{----} \text{ mm}$
 $1 \text{ dm} = \text{-----} \text{ sm}$
 $1 \text{ m} = \text{-----} \text{ dm}$
 $1 \text{ m} = \text{-----} \text{ sm}$

2-8 Rasmga qarab mashqlarni bajaring



- 2 Har bir qalamning uzunliklarini aniqlang.
 3 Qizil va ko'k qalamlarning birgalikdagi uzunligi necha sm bo'ladi?
 4 Sariq va yashil qalamlarning birgalikdagi uzunligi necha sm bo'ladi?
 5 Ko'k qalam sariq qalamdan necha sm uzun?
 6 Yashil qalam qizil qalamdan necha sm uzun?
 7 Qizil va yashil qalamlarning birgalikdagi uzunligi, sariq va ko'k qalamlarning birgalikdagi uzunligidan necha sm qisqa?
 8 Qaysi ikkita qalamning uzunliklari yig'indisi ko'k qalam uzunligiga teng bo'ladi?
 9 Ushbu narsalar qanday o'lchamda bo'lishi mumkin ekanligini belgilang.



- 3 mm
 3 sm
 3 m



- 2 mm
 2 sm
 2 m



- 7 mm
 7 sm
 7 m


6 Quyovning og'irligini toping. (kg)



7 Tulkingning og'irligini toping. (kg)




8 Kuchukning og'irligini toping.




9 Qovunning og'irligini toping. (kg)



10 Tarvuzning og'irligini toping. (kg)



11 Qutining og'irligini toping. (kg)



12-27 Bo'sh joylarni to'ldiring

12 $3 \text{ kg} = \text{----- } gr$

13 $5 \text{ kg} = \text{----- } gr$

14 $1 \text{ kg } 200 \text{ gr} = \text{----- } gr$

15 $3 \text{ kg } 456 \text{ gr} = \text{----- } gr$

16 $6 \text{ kg } 790 \text{ gr} = \text{----- } gr$

17 $4000 \text{ gr} = \text{----- } kg$

18 $9000 \text{ gr} = \text{----- } kg$

19 $1500 \text{ gr} = \text{----- } kg \text{----- } gr$

20 $2700 \text{ gr} = \text{----- } kg \text{----- } gr$

21 $4567 \text{ gr} = \text{----- } kg \text{----- } gr$

22 $1 \text{ kg } 100 \text{ gr} + 2 \text{ kg } 300 \text{ gr} = \text{----- } kg \text{----- } gr$

23 $3 \text{ kg } 300 \text{ gr} + 4 \text{ kg } 400 \text{ gr} = \text{----- } kg \text{----- } gr$

24 $2 \text{ kg } 700 \text{ gr} + 2 \text{ kg } 500 \text{ gr} = \text{----- } kg \text{----- } gr$

25 $5 \text{ kg } 560 \text{ gr} + 7 \text{ kg } 640 \text{ gr} = \text{----- } kg \text{----- } gr$

26 $10 \text{ kg } 880 \text{ gr} + 6 \text{ kg } 430 \text{ gr} = \text{----- } kg \text{----- } gr$

- 25 Bitta guldasta yasash uchun bizga 16 ta gul va 1 ta rangli qog'oz kerak bo'ladi. Bitta gulning narxi 3 \$ va bitta qog'ozning narxi esa 5 \$. Biz 2 ta guldasta yasash uchun qancha harajat qilamiz?




- 26 Sunnat avval taroziga chiqqanida 35 kg edi. Hozir tarozi rasmdagidek ko'rsatyapti. Agar tarozi 2 kg yengil ko'rsatadigan bo'lsa, Sunnat avvalgidan necha *kg* semirgan?



- 27 Ko'p qavatli uyning har bir qavatini 3 metr 27 sm ekan. Agar ko'p qavatli uy 5 qavatdan iborat bo'lsa, bu ko'p qavatli uyning balandligini toping.
- 28 Poyezd temir yo'lining har bitta bo'lagining uzunligi 5 metr 40 sm bo'lsa, shundan 10 ta bo'lakdan qancha uzunlikdagi temir yo'l qurish mumkin?
- 29 Jadvalni to'ldiring:

+	4		8	
7		9		20
4				
	15			
5				

- 7 Vagonlardagi sonlar qanday qonuniyat asosida yozilayotganini aniqlab ? o'rniga mos keluvchi sonni toping.



A) 52 B) 64 C) 66 D) 72

- 8 Temurda 7 ta tayoqcha bor edi. Ulardan uchtasini ikkiga bo'ldi. Endi uning nechta tayoqchalari bor?
A) 9 B) 10 C) 11 D) 12

- 9 135 betli kitobni qizcha dastlab har kuni 16 betdan 6 kun, keyingi kunlari esa 13 betdan o'qib tugatdi. Qizcha kitobni necha kunda o'qib tugatgan?
A) 6 B) 3 C) 9 D) 10

- 10 O'qituvchi Malika, Nusrat, Laylo, Bekzod, Mahmud, Tolib, Vali va Dilmurod 8 ta o'quvchidan sinf sardorini tanladi. U kimni tanlagani haqida quyidagi ma'lumotlar bor?

- Ismi 4 ta harfdan ko'p, lekin 7 harfdan kam.
- Ismida 2 ta unli harf bor.
- Ismida 3 ta undosh harf bor.
- U qiz bola emas.

O'qituvchi sinf sardori qilib kimni tanladi?



A) Nusrat B) Tolib C) Vali D) Laylo

- 11 Madinaning 3 ta qopida jami 19 ta olma bor. U har bir qopdan bir xil miqdorda olma oldi. Shundan so'ng qoplarda 3, 4 va 6 ta olma qoldi. Madina har bir qopdan nechtadan olma oldi?
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4